Tadqiqot uz

ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 11 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 11

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№11 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-11

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O‘zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Sattorov Abdug‘affor
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Nematov Jo‘rabek Nematilloyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O‘zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚ. МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ. МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O’zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)
Peshkova Xristina Vyachesloavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Ro‘zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O’zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАКАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО, АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW, ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Muxamedov Xaydarali Meliyevich
Yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

12.00.06 - ТАБИИЙ РЕСУРСЛАР ҲУҚУҚИ. АГРАР ҲУҚУҚ. ЭКОЛОГИК ҲУҚУҚ / ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО; АГРАРНОЕ ПРАВО; ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО / NATURAL RESOURCE LAW; AGRARIAN LAW; ENVIRONMENTAL LAW

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Jo‘rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Nurmatov Mirg‘olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Yeshanova Dauletbike Ametbekovna
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

12.00.07 - СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ. ҲУҚУҚНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. АДВОКАТУРА / СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА / THE JUDICIAL AUTHORITY. PROSECUTOR SUPERVISION. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT ACTIVITIES. ADVOCACY

Po‘latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

12.00.08 - ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ / УГОЛОВНОЕ ПРАВО И КРИМИНОЛОГИЯ; УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО / CRIMINAL LAW AND CRIMINOLOGY; CRIMINALLY-EXECUTIVE LAW

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Rozimova Qunduz Yuldashevna
Yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o‘g‘li
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog‘iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo‘shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

12.00.09 - ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ. КРИМИНАЛИСТИКА. ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ҲУҚУҚ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ / УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС, КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА / CRIMINAL PROCEDURE, CRIMINALISTICS, OPERATIVE-SEARCH LAW AND JUDICIAL EXAMINATION

Inog‘omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
To‘laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O’zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog‘iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

12.00.10 - ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ / МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО / INTERNATIONAL LAW

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germanya)

MUSAHHIH: NURMUHAMMAD HAMIDOV

DIZAYN - SAHIFALOVCHI: XURSHID MIRZAXMEDOV

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Овулов Пўлатжон Илҳом ўғли
ДАВЛАТ ВА ЮРИДИК ШАХСЛАР ЖАВОБГАРЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ.....5

2. Рашидова Шахзода Раимовна
ИНСТИТУТ СЕМЕЙНОЙ МЕДИАЦИИ: ПРАВОВОЙ ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И АРАБСКИХ СТРАН (ОАЭ И ЕГИПТА).....20

3. Raximov Dilmurodjon G‘ulomjon o‘g‘li
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI ENG MUHIM SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....27

4. Максумова Наргиза Алишеровна
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИЗНАНИЯ ИМУЩЕСТВЕННЫХ ПРАВ ПО ДОГОВОРУ ДОЛЕВОГО УЧАСТИЯ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ ОБЩИМ ИМУЩЕСТВОМ СУПРУГОВ.....39

5. Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ОИЛАВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ШАРТНОМАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ҲУҚУҚИЙ ЧЕГАРАЛАР, НОТАРИАЛ ТАРТИБ ВА НИЗОЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ.....47

6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich
ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY BOSQICHI: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, OCHIQLIK VA JAMOATCHILIK ISHONCHI.....58

7. Akramova Muazzam Turdiqul qizi
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA TIJORAT TASHKILOTLARI MANSABDOR SHAXSLARINING KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIGI.....65

8. Nodirov Muzaffar Akhmadovich, Nurmukhamedov Sardorbek Elmuradovich
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND CRIMINAL LIABILITY: CAN ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS BE SUBJECTS OF A CRIME?.....74

9. Saidov Olim Chorikulovich
BOSHQA HUQUQIY OILALAR VAKILLARINING TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN IMPLEMENTATSIYA STRATEGIYASI.....83

10. Seytnazarov Qurbanbay Reyimbayevich
MDH MAMLAKATLARI JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA SUD ISH YURITUVIDA TORTISHUV INSTITUTI.....90

11. Умаров Бахтиёр Усмонович
ПРОЦЕССУАЛЬНЫЙ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОХРАННОСТИ ЦИФРОВЫХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ.....96

12. Бабаева Иродахон Эркинжон кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....104

ISSN: 2181-9130
www.tadqiqot.uz
ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

12.00.07-СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

Turayev Jo‘rabek Shonazarovich,
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: jurabekturayev750@gmail.com

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY BOSQICHI: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, OCHIQLIK VA JAMOATCHILIK ISHONCHI

For citation: Turaev Jurabek Shonazarovich. THE CURRENT STAGE OF PUBLIC SAFETY PROVISION BY INTERNAL AFFAIRS BODIES: DIGITAL TECHNOLOGIES, TRANSPARENCY AND PUBLIC TRUST. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 11.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24167469

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari faoliyatini zamonaviylashtirish jarayonida jamoat xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy va huquqiy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, uchuvchisiz uchish apparatlari, sun’iy intellektga asoslangan tahliliy tizimlar va «Aqlli shahar» yechimlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, vaziyatni tezkor baholash hamda boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari yoritiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda inson huquqlari, axborot xavfsizligi, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va jamoatchilik ishonchini ta’minlash yuzasidan ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, jamoat xavfsizligi, dron, sun’iy intellekt, «Aqlli shahar», raqamli monitoring, huquqbuzarliklar profilaktikasi, axborot xavfsizligi, jamoatchilik ishonchi.

Тураев Журабек Шоназарович,
Самостоятельный соискатель Академии
Министерства внутренних дел Республики Узбекистан
E-mail: jurabekturayev750@gmail.com

СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ОРГАНАМИ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ: ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, ОТКРЫТОСТЬ И ОБЩЕСТВЕННОЕ ДОВЕРИЕ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются организационно-правовые аспекты обеспечения общественной безопасности в условиях модернизации органов внутренних дел. Особое внимание уделяется возможностям беспилотных летательных аппаратов, аналитических систем на основе искусственного интеллекта и решений «Умный город» в профилактике правонарушений, оперативной оценке обстановки и поддержке управленческих решений. Предлагаются

подходы к внедрению технологий с соблюдением прав человека, требований информационной безопасности и укреплением общественного доверия.
Ключевые слова: органы внутренних дел, общественная безопасность, беспилотные летательные аппараты, искусственный интеллект, «Умный город», цифровой мониторинг, профилактика правонарушений, информационная безопасность, общественное доверие.

Turaev Jurabek Shonazarovich,
Independent Researçer of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
E-mail: jurabekturayev750@gmail.com

THE CURRENT STAGE OF PUBLIC SAFETY PROVISION BY INTERNAL AFFAIRS BODIES: DIGITAL TECHNOLOGIES, TRANSPARENCY AND PUBLIC TRUST

ANNOTATION
This article examines the organizational and legal dimensions of public safety in the modernization of internal affairs bodies. Particular attention is given to unmanned aerial vehicles, artificial intelligence-based analytical systems and smart city solutions for crime prevention, situational awareness and decision support. It proposes approaches to technological implementation that respect human rights, information security requirements and public trust.
Keywords: internal affairs bodies, public safety, drones, artificial intelligence, smart city, digital monitoring, crime prevention, information security, public trust.

Ichki ishlar organlarining bugungi faoliyatini tadqiq etish davomida ushbu tizimning mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichlariga e’tibor qaratish zarur. Respublikamizda milliy huquqiy tizim shakllanishi bilan bir vaqtda jamoat tartibini muhofaza qilish, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga mas’ul tuzilmalar ham yangilanib bordi. Hozirgi davrda esa ichki ishlar organlari faoliyati nafaqat aniqlangan huquqbuzarliklar, balki fuqarolar bilan muloqot sifati, murojaatlarga munosabat va inson huquqlariga rioya etilishi jarayonida ham yaxshilanib bormoqda [1]. Shu bilan birga, aholi zichligi, transport oqimi va axborot almashinuvi ortib borayotgan bugungi sharoitda xavfsizlikni faqat an’anaviy usullar bilan ta’minlashning o‘zi yetarli emasl. Shu sababli, zamonaviy texnik vositalarni huquqiy kafolatlar va inson omili bilan uyg‘unlashtirish tizimning keyingi rivojlanish bosqichini belgilamoqda.

Davlat boshqaruvida inson manfaatlariga ustuvor ahamiyat berilishi ichki ishlar organlarining kundalik ish uslubini ham takomillashtirishni taqozo etadi [9]. Mahallalarda aholiga yaqindan xizmat ko‘rsatish, xodimlarning huquqiy va muloqot kompetensiyasini mustahkamlash, shuningdek, xizmat faoliyati haqida ishonchli axborot berish bu jarayonning uzviy qismlaridan biridir. Har bir xodimning fuqaroga munosabati alohida holat bo‘lib qolmay, butun tizimga nisbatan ijtimoiy tasavvurni shakllantirishda ishtirok etadi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-avgustdagi PQ–303-son qarori ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Unda IIV Akademiyasida maktablar tizimini shakllantirish, ta’limni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va innovatsion yondashuvlarni kengaytirish belgilangan. Ushbu istiqbolli tashabbus professional, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega xodimlarni tayyorlashning mustahkam asosini yaratadi [5].

Ichki ishlar organlari tizimini o‘rganar ekanmiz, unda bir necha **ustuvor vazifalar** mavjud ekanligi namoyon bo‘ladi: dastlab milliy huquqiy asoslarni yaratish, keyinchalik kadrlar tayyorlash va xizmat tartiblarini takomillashtirish, so‘ng profilaktika hamda aholiga yo‘naltirilgan boshqaruvni kuchaytirish shular jumlasidandir. Ushbu bosqichlar bir-birini inkor etmasdan, yagona institutsional rivojlanish jarayonini tashkil qiladi. Ayniqsa, 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunda xodimlarning vakolatlari bilan bir qatorda fuqarolar oldidagi majburiyatlarining belgilanishi muhim omil bo‘ldi.

2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun tizim faoliyatining asosiy vazifalari, prinsiplari, huquq va majburiyatlarini belgilab berdi. Qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, ochiqlik hamda hamkorlik kabi qoidalar ichki ishlar organlarining institutsional imijini shakllantirish uchun ham huquqiy poydevor vazifasini bajaradi. Binobarin, ijobiy imidj targ‘ibot natijasigina emas, avvalo kundalik xizmatning qonuniy va adolatli tashkil etilishidan kelib chiqadi [2]. Xodimlarning qonuniy talablari aniq va asosli bo‘lishi, ularga rioya etish masalalarining huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholanishi ham xizmatga nisbatan ishonchni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi [10].

Keyingi islohotlar ichki ishlar organlari faoliyatini hududdagi real ehtiyojlarga yaqinlashtirishga qaratildi. Mahalla kesimida muammolarni aniqlash, profilaktika inspektorlarining aholi bilan doimiy aloqasini ta’minlash va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish natijadorlikka xizmat qildi. Bunday yondashuvda xavfsizlik faqat sodir bo‘lgan huquqbuzarlikka javob qaytarish emas, balki xavf omillarini oldindan bartaraf etish asnosida amalga oshirildi.

Keyingi yillarda mahallalarda profilaktika ishlarini rejalashtirishda hududning kriminogen holati, gavjum nuqtalar, transport yo‘nalishlari va fuqarolardan kelib tushayotgan xabarlar o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi yo‘lga qo‘yildi. Biroq bu jarayonda ma’lumotlarning turli axborot tizimlarida tarqoq holda saqlanishi, ularni tezkor almashish va kompleks tahlil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bunday ma’lumotlarni yagona elektron muhitda umumlashtirish profilaktika inspektori va patrul-post xizmati faoliyatida takroriy vazifalarni kamaytiradi, mavjud kuch va vositalardan oqilona foydalanish hamda xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash imkonini beradi.

Bu borada 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son Farmon bilan tasdiqlangan Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi jamoat xavfsizligini ta’minlashni kompleks va muvofiqlashtirilgan asosda qaytadan ishlab chiqish uchun zamin yaratdi. Mazjur farmon bilan ichki ishlar organlari tizimida xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, davlat organlari va jamoatchilikning hamkorligi, hududiy xususiyatlarni hisobga olish kabi yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etdi [3].

Fikrimizcha, jamoat xavfsizligi konsepsiyasining amaliy ahamiyati aynan xavf omillarini sodir bo‘ladigan hodisadan avval aniqlash imkoniyati bilan ham izohlanadi. Buning uchun texnik kuzatuv vositalari, tezkor navbatchilik qismlari va hududiy bo‘linmalar o‘rtasida uzluksiz axborot almashinuvi zarur. Ma’lumotlarning vaqtida yetib kelishi hamda mas’ul xodim tomonidan to‘g‘ri talqin etilishi boshqaruv qarorining sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shunday ekan, raqamlashtirishni alohida qurilma xarid qilish bilan emas, balki axborotdan amaliy choragacha bo‘lgan butun jarayonni takomillashtirish bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari kuchaytirilgani huquqni muhofaza qilish faoliyatining mazmuniga ham bevosita ijobiy ta’sir qiladi. Ichki ishlar organlari xodimining professional qiyofasi, eng avvalo, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat, vakolat doirasida ish yuritish, mutanosiblik va xolislikda namoyon bo‘ladi[1].

Zamonaviy kuzatuv texnologiyalari qo‘llanilganda konstitutsiyaviy kafolatlarning amalda ta’minlanishi alohida e’tibor talab qiladi. Bunda videoyozuvlar, geolokatsiya va boshqa raqamli ma’lumotlar bilan ishlashda maqsadning aniqligi, zarurat va mutanosiblik mezonlari ustuvor bo‘lishi kerak. Axborotdan foydalanish huquqini cheklash, kirish amallarini qayd etish hamda ma’lumotlarni belgilangan tartibda saqlash nazoratning muhim elementlaridir. Texnik imkoniyatning mavjudligi har qanday kuzatuvni avtomatik ravishda asosli qilib qo‘ymaydi; har bir amaliyot tegishli huquqiy asos va xizmat ehtiyoji bilan izohlanishi zarur [1], [2].

Bundan tashqari, jamoatchilik ishonchi ichki ishlar organlari faoliyatini baholashda mustaqil ahamiyatga ega mezondir. Fuqaro xizmat ko‘rsatish jarayonida xolis munosabat, tushunarli izoh va qonuniy qarorni ko‘rsa, davlat idorasi bilan hamkorlik qilishga moyilligi ortadi. Aksincha, murojaatning mohiyatiga yetib bormaslik yoki muomala madaniyatidagi kamchiliklar ko‘plab ijobiy natijalarning jamoatchilikka yetib borishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Fuqarolar murojaatlari bilan ishlash sifatini oshirish ham ishonchning amaliy mezonidir. Murojaatga o‘z vaqtida javob qaytarishning o‘zi yetarli emas; javobning tushunarliligi, qonuniy

asoslanganligi, muammoning real hal etilishi va fuqaroning keyingi murojaat qilish imkoniyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Murojaatlar tahlilini raqamli vositalar bilan boyitish jamoat xavfsizligidagi takrorlanuvchi muammolarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, bir ko‘cha yoki bekat yuzasidan kelib tushgan bir nechta murojaat yagona xaritada aks ettirilsa, muammo hududiy jihatdan tezroq ko‘rinadi.

Raqamli axborot makonida ichki ishlar organlarining har bir harakati tezkor ravishda keng auditoriya e’tiboriga tushishi mumkin. Ayniqsa, qisqa videolar va keskin sarlavhalar hodisa haqida dastlabki munosabatni shakllantiradi. Shu sababli voqeaning to‘liq konteksti, tasvirga olinmagan holatlar va tekshirilgan dalillarni hisobga olmasdan yakuniy xulosa chiqarish xatarlidir. Idoraviy axborot siyosati aynan shu sharoitda aniqlik va tezkorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashi zarur.

Raqamli davrda ochiqlik texnik kuzatuv vositalaridan foydalanish tartibi haqida ham tushunarli axborot berishni anglatadi. Fuqarolar kameralar va boshqa qurilmalar qaysi xavfsizlik maqsadida ishlatilishi, ma’lumotlarga kimlar kirishi hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qayerga murojaat etishi mumkinligini bilishi lozim. Mazkur yondashuv texnologiyalarning o‘ziga nisbatan emas, ulardan foydalanish tartibiga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

Raqamlashtirish ichki ishlar organlari ishining tezkorligi va hisobdorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron murojaatlar, axborot tizimlari, vaziyatni monitoring qilish vositalari va ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari boshqaruv qarorlarini yanada asosli qabul qilishga xizmat qilishi mumkin. Biroq har qanday texnologik yechim shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi va inson huquqlariga rioya etish talablari bilan uyg‘un bo‘lishi lozim [3], [5].

Sun’iy intellektni jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida qo‘llashda xalqaro yondashuvlar ham inson manfaatlarini texnik samaradorlikdan ajratib ko‘rmaslik zarurligini ko‘rsatmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyada ham shaffoflik, adolat, inson nazorati va javobgarlik kabi tamoyillar ilgari surilgan [8]. Mazkur tamoyillarni ichki ishlar organlari amaliyotiga tatbiq etish, avvalo, algoritmik tavsiyaning qanday ma’lumotga tayanganini tushuntirish, xato signalni qayta tekshirish va muhim qarorlar bo‘yicha mas’ul shaxsni aniq belgilashni talab etadi. Ayniqsa, shaxsning huquqiy maqomiga ta’sir qiluvchi qarorlar faqat avtomatlashtirilgan hisob-kitob natijasida qabul qilinmasligi lozim.

Bunda raqamli monitoringning hududiy xususiyatlarga moslashtirilishi ham alohida ahamiyatga ega. Katta shaharlarda transport oqimi va ommaviy tadbirlar bilan bog‘liq xavflar ustuvor bo‘lsa, chekka hududlarda uzoq masofa, aloqa qamrovi va tezkor yetib borish imkoniyati muhim bo‘lishi mumkin. Shu sababli bir hududda samarali ishlagan texnik yechimni boshqa joyga aynan ko‘chirish kutilgan natijani bermasligi ehtimoldan xoli emas. Dastlab mahalliy ehtiyoj o‘rganilishi, so‘ng zarur qurilma va dasturiy ta’minot tanlanishi maqsadga muvofiq.

Kuzatuv ma’lumotlari bilan ishlashda shaxsiy hayot daxlsizligi masalasi faqat ma’lumotni oshkor qilmaslik bilan cheklanmaydi. Tasvirni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish, uzatish va o‘chirishning har bir bosqichida aniq qoidalar amal qilishi kerak. BMTning raqamli davrda shaxsiy hayot daxlsizligiga oid materiallarida ham texnologik kuzatuvning inson huquqlariga ta’sirini baholash zarurligi ta’kidlanadi [9]. Shu bois yangi tizimni ishga tushirishdan oldin uning maqsadi, qamrovi, mumkin bo‘lgan xatarlari va nazorat mexanizmlari hujjatlashtirilishi muhimdir.

Texnologiyalarni boshqarishda idoralararo hamkorlikning amaliy tartibi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan oldindan kelishilishi zarur. Ichki ishlar organlari, favqulodda vaziyatlar xizmatlari, mahalliy hokimliklar va transport boshqaruvi tuzilmalari bir xil hodisaga turli vazifalar nuqtayi nazaridan yondashadi. Bunday sharoitda axborot uzatish kanallari va javobgar shaxslar oldindan belgilanmasa, texnik kuzatuv mavjud bo‘lsa ham qaror qabul qilish kechikishiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, bunday holatlarni oldini olish maqsadida maqsadli o‘quv treninglarini o‘tkazish hamda xodimlar malakasini oshirib boorish maqsadga muvofiqdir. Birgalikdagi o‘quv mashg‘ulotlari turli tizimlarning o‘zaro ishlashini real vaziyat yuzaga kelishidan avval sinab ko‘rish imkonini beradi.

Zamonaviy texnikalardan foydalanishning tashkiliy samarasi uch asosiy shartga bog‘liq bo‘ladi: ishonchli ma’lumot, tayyorlangan mutaxassis va aniq javobgarlik tizimi. Ushbu shartlardan

biri yetishmasa, texnologiya imkoniyatlari to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Shu sababli ichki ishlar organlarida innovatsiyalarni joriy etish dasturlari texnik xaridlar bilan bir qatorda xizmat reglamentlarini yangilash, xodimlarni o‘qitish va natijalarni muntazam baholash choralarini ham qamrab olishi zarur.

Bunda boshqaruvning barcha darajalarida qayta aloqa mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq. Xizmat xodimlari texnik tizim qayd etgan ogohlantirishlar qanchalik foydali bo‘lganini, qaysi vaziyatlarda noto‘g‘ri signal kelganini va qanday qo‘shimcha ma’lumot zarurligini muntazam bildirishi kerak. Mazkur kuzatuvlar asosida dasturiy yechimlar takomillashtiriladi, amaliy yo‘riqnomalar aniqlashtiriladi va navbatdagi o‘quv mashg‘ulotlari mazmuni belgilanadi. Shuningdek, tizimning natijadorligini baholashda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, ommaviy tadbirlarning xavfsiz o‘tishi hamda xizmat kuchlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirish sifati ham inobatga olinishi zarur. Shunday yondashuv texnologik imkoniyatlarni jamoat xavfsizligining aniq ehtiyojlariga bo‘ysundirishga, asossiz xarajatlarning oldini olishga va tizim faoliyatida barqaror samaradorlikka erishishga yordam beradi. Eng muhimi, texnologik taraqqiyot fuqarolarning kundalik xavfsizligi va huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda uchuvchisiz uchish apparatlari, ya’ni dronlardan foydalanish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Ular ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan hududlarda odamlar oqimini kuzatish, kirish-chiqish yo‘laklarining bandligini baholash va favqulodda holatda xavfsiz harakat yo‘nalishlarini aniqlashda yordam berayotganini amaliyotda ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, keng maydon, chekka hudud yoki murakkab relyefda vaziyatni yuqoridan ko‘rish tezkor boshqaruv uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratmoqda. Biroq dronlardan foydalanish vakolat, parvoz xavfsizligi, tasvirlarni qayta ishlash va shaxsiy hayotni himoya qilish talablariga qat’iy rioya etgan holda tashkil qilinishi zarur [2], [3].

Dronlarning samaradorligi ularning texnik xususiyatlari bilangina belgilanmaydi. Parvozdan oldin vazifa, kuzatuv hududi, mas’ul operator va axborot uzatish kanali aniqlanishi, parvoz davomida esa qayd etilgan holatlar navbatchilik qismi bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Masalan, ommaviy tadbirda odamlar bir yo‘nalishga keskin to‘plangani aniqlansa, olingan tasvir tegishli xizmatlarga yuborilib, piyodalar oqimini qayta tashkil etish masalasi ko‘rib chiqiladi. Shunday qilib, dron mustaqil nazorat vositasi emas, balki xavfsizlik kuchlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi axborot manbai sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, sun’iy intellektga asoslangan dasturlar katta hajmdagi videotasvir va xabarlarni tezkor tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Ular tirbandlikning noodatiy kuchayishi, odamlar oqimidagi keskin o‘zgarish yoki kuzatuv tizimida yuzaga kelgan texnik uzilishlarni operator e’tiboriga havola etishi mumkin. Biroq algoritm aniqlagan belgi huquqbuzarlik sodir etilganining isboti hisoblanmaydi. Noto‘g‘ri ogohlantirishlar, ma’lumotlar sifati va modelning muayyan vaziyatlarga mos kelmasligi kabi xavflar mavjud. Shu bois har qanday muhim qaror vakolatli xodim tekshiruvi va huquqiy bahosidan keyin qabul qilinishi kerak [1], [2].

«Aqlli shahar» yondashuvi esa videokuzatuv, transportni boshqarish, tezkor xabar berish va boshqa shahar infratuzilmasi elementlarini o‘zaro bog‘lashni nazarda tutadi. Bugungi kunda yirik shahlarimizda qo‘llanilayotgan ushbu tizim orqali yirik chorrahalarda transport harakati to‘xtashi, yaqin hududdan fuqarolar murojaati kelib tushishi va kuzatuv kamerasida gavjumlik qayd etilishi birgalikda baholanib, vaziyatga javob berish tezlashmoqda [3].

Mazkur tizimlarni (dron, sun’iy intellect, “aqlli shahar” va.b.) joriy etishda bosqichma-bosqich sinov usuli maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda dastlab xavfsizlik nuqtayi nazaridan dolzarb hudud tanlanib, mavjud kameralar, aloqa kanallari va xodimlar tayyorgarligi o‘rganiladi. Keyingi bosqichda esa texnik vositalar cheklangan ko‘lamda sinovdan o‘tkazilib, ogohlantirishlarning aniqligi, xodimlarning javob vaqti hamda fuqaro huquqlariga ta’siri baholanadi. Natijalar asosida kamchiliklar bartaraf etilgachgina tizimni boshqa hududlarga kengaytirish mumkin. Bunday yondashuv orqali texnik yechimlarning haqiqiy natijadorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Xodimlarni tayyorlashda huquqiy bilim bilan birga murakkab muloqot vaziyatlarini boshqarish ko‘nikmalariga ham e’tibor qaratish kerak. Masalan, xizmat jarayoni videoga olinayotganida, fuqaro keskin savol berganida yoki jamoat joyida tortishuv yuzaga kelganida xodim

vaziyatni qonuniy va vazmin boshqarishi zarur. Bunga vaziyatli mashqlar, rolli treninglar va amaliy holatlarni birgalikda muhokama qilish orqali erishish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik dasturlarida dron operatorlari, videokuzatuv markazi xodimlari va tahliliy bo‘linmalar uchun o‘zaro bog‘langan amaliy mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Kursantlarga nafaqat qurilmani boshqarish, balki kelgan ma’lumotni tanqidiy baholash, algoritm xatosini aniqlash va zarur holatda avtomatlashtirilgan tavsiyani rad etish ko‘nikmalari ham o‘rgatilishi kerak. Vaziyatli mashg‘ulotlarda texnik nosozlik, aloqa uzilishi yoki noto‘g‘ri signal kabi ssenariylardan foydalanish xodimlarning murakkab sharoitda mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini oshiradi [5].

Xodimning kasbiy odobi va kommunikativ kompetensiyasi ijobiy imijning eng barqaror manbaidir. Reklama yoki ijobiy xabar qisqa muddatli taassurot qoldirishi mumkin, ammo fuqarolarning kundalik tajribasi uzoq muddatli ishonchni belgilaydi.

Texnologik yangilanish natijasini baholashda faqat o‘rnatilgan kameralar yoki xarid qilingan dronlar soniga tayanish yetarli emas. Asosiy mezonlar sifatida xavf haqida xabarni aniqlash vaqti, xizmat kuchlarining yetib borish tezligi, oldi olingan xavfli vaziyatlar, murojaatlarni ko‘rib chiqish sifati hamda axborot bilan ishlashdagi qonuniylik ko‘rsatkichlari olinishi mumkin. Fuqarolarning xavfsizlik hissi va xizmatga ishonchi ham ushbu baholashning ajralmas qismi bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarining mustaqillik yillaridagi rivojlanishi milliy huquqiy asoslarni yaratishdan boshlab, fuqarolar manfaatlari, jamoat xavfsizligi va ochiq boshqaruvga yo‘naltirilgan zamonaviy institutni shakllantirishgacha bo‘lgan izchil jarayonni ifodalaydi. Prezidentimiz rahbarligidagi islohotlar bu yo‘nalishda xalq bilan muloqot, mahallada xavfsizlik, professionallik va xizmat natijadorligini ustuvor vazifalarga aylantirdi.

Shu nuqtayi nazardan, kelgusida jamoat xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy modeli texnologiya, malakali xodim va jamoatchilik bilan hamkorlikning uzviy birligiga asoslanishi kerak. Dronlar hududiy vaziyatni tezroq ko‘rish, sun’iy intellekt katta hajmdagi axborotni saralash, «Aqlli shahar» infratuzilmasi esa turli xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ushbu vositalarning ijobiy samarasi qonuniylik, mutanosiblik, inson nazorati va hisobdorlik ta’minlangandagina barqaror bo‘ladi.

Iqtiboslar/Сноска/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan yangi tahrir) (Constitution of the Republic of Uzbekistan (new edition adopted by referendum on April 30, 2023). Official source.)

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ–407-son “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-407 dated September 16, 2016, “On Internal Affairs Bodies).”

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-27 dated November 29, 2021, “On Approval of the Public Safety Concept of the Republic of Uzbekistan and Measures for Its Implementation.”)

4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. (Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Liability)

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-avgustdagi PQ–303-son “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlash tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. (Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-303 dated August 26, 2026, “On Measures to Transform the System of Professional Personnel Training for Internal Affairs Bodies.”)

6. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi O‘RQ–445-son “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-445 dated September 11, 2017, “On Appeals of Individuals and Legal Entities.”)

7. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. 2021. Rasmiy manba: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137
8. United Nations Human Rights Office. The right to privacy in the digital age. Rasmiy manba: https://www.ohchr.org/en/privacy-in-the-digital-age
9. Nasilloyev A. The Absence of Civil Conflicts – A Priority Direction in the Activities of Internal Affairs Bodies in Ensuring the Rule of Law // American Journal of Education and Learning. 2025. Vol. 3, No. 9. Nashr sanasi: 26.10.2025. https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/view/3032/
10. Nasilloyev A. Forms of the Administrative Offense for Non-Compliance with the Lawful Demands of Internal Affairs Officers // 2024. Vol. 2, Issue 12. Manba: https://webofjournals.com/index.php/9/article/download/2568/2539/5001

Tadqiqot uz

ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo‘yilgan talablar:

1. *Maqola o‘zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig‘ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo‘lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo‘lib, satrlarni eniga to‘g‘irlash, so‘zlarni boshqa qatorga ko‘chirish avtomatik tarzda bo‘lishi lozim.*
2. *Birinchi qator o‘ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahafaning o‘rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma’lumotlar o‘zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.*
3. *Keyingi qatordan o‘zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o‘zbek, ingliz va rus tillarida so‘zdan iborat annotatsiya beriladi.*
4. *Keyingi qatordan 6-10 ta o‘zbek, ingliz va rus tillarida kalit so‘zlar beriladi.*
5. *Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so‘zi minimal 2000 ta bo‘ladi.*
6. *Adabiyotlarning to‘liq ro‘yxati asosiy matndan so‘ng alifbo tartibida ko‘rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].*
7. *Maqolada keltirilgan dalillarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’ul, plagiat holati taqiqlanadi.*
8. *Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.*

Требования к оформлению научной статьи:

1. *Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.*
2. *В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.*
3. *Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.*
4. *Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.*
5. *Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.*
6. *Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, С.25].*
7. *Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.*
8. *Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.*

Requirements of the articles submitted:

1. *Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.*
2. *In the first line on the right: the author’s surname, given name and patronymic; in the second line: the author’s affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.*
3. *Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.*
4. *Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.*
5. *Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.*
6. *The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].*
7. *The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.*
8. *It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.*